



A model for professional preparation of future teachers based on a creative approach in pedagogical education

Eldar TADJIBAEV¹

Fergana State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2024

Received in revised form

10 August 2024

Accepted 25 September 2024

Available online

15 October 2024

Keywords:

creative approach,
pedagogical education,
professional training,
future teacher,
innovative methods,
competence,
interactive technologies,
model,
educational process,
diagnostics.

ABSTRACT

This article analyzes the theoretical foundations and practical applications of a creative approach model for the professional training of future teachers in the pedagogical education system. It examines ways to achieve effective results in developing creative competence through innovative methods, interactive technologies, and a step-by-step learning model. The model comprises adaptive, research-oriented, and integrative stages, which collectively have a comprehensive impact on the student's personal development. Additionally, the article scientifically elucidates didactic tools, assessment criteria, and opportunities for integrating national values into the educational process.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss5-pp284-289>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Pedagogik ta'limda kreativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash modeli

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

kreativ yondashuv,
pedagogik ta'lim,
kasbiy tayyorlash,
bo'lajak o'qituvchi,
innovatsion metodlar,
kompetentlik,
interfaol texnologiyalar,
model,
ta'lim jarayoni,
diagnostika.

Ushbu maqolada pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashda kreativ yondashuv modelining nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlari tahlil qilingan. Kreativ kompetentlikni shakllantirishda innovatsion metodlar, interfaol texnologiyalar va bosqichma-bosqich o'qitish modeli asosida samarali natijalarga erishish yo'llari ko'rib chiqilgan. Model tarkibida adaptiv, tadqiqotga yo'naltirilgan va integratsion bosqichlar ajratilgan bo'lib, ular o'quvchi-shaxs rivojiga kompleks ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, maqolada didaktik vositalar, baholash mezonlari hamda milliy

¹ Independent Researcher, Fergana State University. E-mail: eldar1986@gmail.com

qadriyatlarni integratsiyalash imkoniyatlari ilmiy asosda yoritilgan.

Модель профессиональной подготовки будущих учителей на основе креативного подхода в педагогическом образовании

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

креативный подход,
педагогическое
образование,
профессиональная
подготовка,
будущий учитель,
инновационные методы,
компетентность,
интерактивные
технологии,
модель,
образовательный процесс,
диагностика.

В данной статье проанализированы теоретические основы и практические возможности модели профессиональной подготовки будущих учителей в системе педагогического образования на основе креативного подхода. Рассмотрены эффективные пути формирования креативной компетентности посредством инновационных методов, интерактивных технологий и поэтапного обучения. Модель включает адаптационный, исследовательский и интеграционный этапы, которые комплексно воздействуют на развитие личности обучающегося. Также научно обоснованы дидактические средства, критерии оценки и возможности интеграции национальных ценностей в образовательный процесс.

KIRISH

Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy ko'nikmalarini kreativ yondashuvning imkoniyatlaridan samarali foydalanish vazifalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ma'lumki, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish va ta'limni texnologiyalashtirish jarayoni uzoq muddat talab etadi. Hozirgi kunda oliy ta'lim tizimida o'quv jarayonini texnologik jihatdan samarali tashkil etish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, rivojlangan mamlakatlarda ta'lim texnologiyasiga oid muammolarni chuqur o'rganishga katta e'tibor berilmoqda. Shu maqsadda turli tashkilotlar tuzilib, maxsus jurnallar nashr etilmoqda. Masalan, AQShda 1961-yilda "Educational Technology" jurnali, 1971-yilda esa "Educational Communications Association" tashkil topgan. Buyuk Britaniyada 1964-yildan "Educational Technology and Programmed Learning" jurnali, 1967-yilda "National Council for Educational Technology" tuzilgan. 1970-yildan "Educational Technology" jurnali chop etilmoqda. Yaponiyada 1965-1970-yillarda to'rtta ilmiy jamiyatlar tashkil etilgan. Shu yillarda "Educational Technology" va "Research in Educational Technology" jurnallari ilmiy jamoatchilik e'tiboriga taqdim etilgan. Italiyada esa 1971-yildan "Educational Technology" jurnali nashr etila boshlangan [4].

O'zbekistonda ta'lim muassasalari faoliyatiga Kreativ yondashuv joriy etishga qaratilgan ko'plab islohotlar amalga oshirildi. Respublikaning yetakchi oliy ta'lim muassasalari qoshida innovatsion (pedagogik texnologiya) markazlar tashkil etildi. Ushbu markazlar tomonidan tashkil etilgan ilmiy seminarlar, qisqa va uzoq muddatli kurslar doirasida oliy ta'lim muassasalari, akademik litsey va professional ta'lim pedagoglari ishtirok etib, pedagogik texnologiya va uning ta'lim jarayonidagi

qo'llanilishi haqida nazariy va amaliy bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi natijalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim sifatini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiya tamoyillari asosida o'quv mashg'ulotlari loyihalarini yaratish va ushbu asosda ta'lim jarayonini tashkil etish, kasbiy yetuk va ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Bu yondashuv ta'lim oluvchilarning faolligini oshirish, ularning bilim va ko'nikmalarini yanada rivojlantirish hamda ta'lim muassasalari samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'limda har bir o'quv mashg'ulotini rejalashtirish va loyihalashtirishda ta'lim texnologiyasi modeli muhim o'rin tutadi. Rejalashtirish, ya'ni istiqboldagi istalayotgan modelni yaratish – loyihalashtirish bilan qiyoslanganda bu juz'iyroq tushuncha hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

XXI asr intellektual salohiyatni yuksaltirish va shaxsni shakllantirish davri bo'lib, respublikada kadrlar tayyorlashning maqsadli tizimini rivojlantirish, jamiyat va davlatning malakali va raqobatbardosh mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojini qondirishni ko'zda tutadi. Ushbu ustuvor vazifani amalga oshirishda ta'lim texnologiyasi innovatsion modelining roli beqiyosdir.

Ta'lim texnologiyasining innovatsion modeli – bu ma'lum vaqt va mavjud sharoitda belgilangan maqsadni amalga oshirish va kutilgan o'quv natijalariga erishishni kafolatlaydigan ta'limning eng maqbul shakli, vositasi, usuli va aspektlarining majmuidir [1].

O'quv faoliyatida oldindan kutilayotgan natijalar – bu o'qitish natijasida ta'lim oluvchi egallashi va bajarishi lozim bo'lgan harakatlar bo'lib, erishilgan natijalarni obyektiv baholash va belgilangan maqsadga mosligini aniqlash imkonini beradi. Bunda:

- ta'lim oluvchining dastlabki bilimlari aniqlanadi;
- o'quv mashg'ulotlari loyihalari tuzib chiqiladi;
- teskari aloqani yo'lga qo'yadi, ta'lim vositalari, ya'ni tezkor so'rov, savol-javob, o'quv topshirig'i natijalari taqdimotini baholashni aniqlaydi;
- loyihaviy faoliyat natijasini jadval ko'rinishda, ya'ni o'quv jarayoni innovatsion ta'lim texnologiyasi modeli ko'rinishida rasmiylashtiradi;
- o'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasini rejalashtirishni texnologik xarita ko'rinishida amalga oshiradi [2].

O'quv mashg'uloti texnologik xaritasi – ta'lim texnologiyasi tuzilishining jarayonli, ya'ni protsessual bayoni aks etgan hujjat bo'lib, u o'quv mashg'ulotining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan faoliyat ketma-ketligining mazmunini yoritib beradi; o'quv jarayonining tashkiliy-didaktik ta'minotini ishlab chiqadi va uni texnologik xaritaga ilova ko'rinishida rasmiylashtiradi.

Texnologik xaritaga ilova o'z ichiga quyidagilarni oladi: ta'lim oluvchilar tomonidan bilim olishni faollashtirish maqsadida qo'llaniladigan test va savollar ro'yxati;

- guruhlarda ishlash uchun yo'riqnoma, o'quv faoliyati natijasida ta'lim oluvchilar tayanishi mumkin bo'lgan tushuncha va qoidalar. Masalan, "Fikriy hujum", "Yalpi fikriy hujum", "Fikrlarning shiddatli hujumi", "6x6x6", "Klaster", "Qarorlar shajarasi" ("Qarorlar qabul qilish texnologiyasi"), "Tajriba vositasida o'qitish sikli" (D.Kolb g'oyasi), "Qora quti", "Venn diagrammasi" usullari, "Zig-zag", "Insert" strategiyalari, "Rolli hamda ishbop o'yinlar", "Maktab o'rtoqlik sudi" va "Zakovatli zukko" usuli kabi qoidalardir [3];
- o'qituvchi tomonidan o'quv jarayonida foydalaniladigan kompyuter, multimedia, yozuv doskasi, slayd, jadval hamda boshqa vizual materiallar;
- munozara o'tkazish uchun qo'shimcha savollar;
- ta'lim oluvchilar faoliyatini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari.

Ta'lim texnologiyasining innovatsion modelini shakllantirishda fanlarni o'qitishning an'anaviy va shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalari asosiy o'rinni egallaydi. Ilm-texnika taraqqiyoti jadallashgan hozirgi davrda samaradorlik, asosan, ta'lim oluvchining o'qitish jarayonidagi o'rni, o'qituvchining unga bo'lgan munosabatiga bog'liq bo'ladi. Bunday sharoitda o'qitish texnologiyasining ikki turini ajratib ko'rsatish mumkin: avtoritar va shaxsga yo'naltirilgan.

Avtoritar texnologiyada o'qituvchi yagona "subyekt" sifatida namoyon bo'ladi, ta'lim oluvchilar esa faqatgina "obyekt" vazifasini bajaradi, xolos. Bunda ta'lim oluvchining tashabbusi va mustaqilligi yo'qoladi, o'qitish majburiy tarzda amalga oshiriladi. Odatdagi an'anaviy o'qitish, avtoritar texnologiyaga taalluqlidir. Bunday ta'lim jarayoni pedagog olim Y.A.Komenskiy tomonidan ifoda etilgan didaktika tamoyillariga asoslangan bo'lib, unda o'qitishni sinf-dars tizimida tashkil etish nazarda tutiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'lim-tarbiya mazmuniga ajdodlarimiz o'g'itlari, xalqimiz milliy qadriyatlarini singdirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq qilish orqali ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Ayni vaqtda, jamiyat ijtimoiy hayotiga axborotlar oqimi shiddatli ravishda kirib kelmoqda va ko'p sohalarni qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor sur'atda qabul qilib olish, tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda yetkazib berishni jadallashtirishni yo'lga qo'yishni ta'lim tizimining zarur vazifalari sifatida belgilash mumkin. Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish yuqoridagi muammolarni ijobiy hal etishga xizmat qiladi.

Aslida innovatsion pedagogik texnologiya anchagina murakkab bo'lib, dars berish usullarining avvalgi yaxshi tomonlarini o'zida mujassam etgan zamonaviy tadbirdir. Innovatsion pedagogik texnologiyada dars va o'quv mashg'ulotlari jarayonida amalga oshiriladigan ishlar loyihasi oldindan bosqichma-bosqich va aniq vaqtga mo'ljallanib tuzib olinadi. Loyihada mashg'ulot jarayonida beriladigan tayanch tushunchalar, nazorat savollari, qo'llaniladigan vosita va didaktik materiallar ko'rsatiladi. Talabalarning amaliy mashqlarni bajara olishi barobarida o'zlashtirishi ham doimiy nazorat ostiga olinadi. Innovatsion pedagogik texnologiyaning ta'lim jarayoniga tatbiqi ta'lim jarayonining faqat yaxshi yoki a'lo darajada amalga oshirishini kafolatlaydi. Chunki, rejalashtirilgan dars loyihalari olimlar yoki tajribali pedagoglar tomonidan tuzib chiqiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga Kreativ yondashuvni qo'llashda, albatta, o'qituvchidan ijodkorlik, bilim va tajriba talab etiladi.

Mashg'ulotlarda didaktika prinsiplari, qonun-qoidalar, sistemali yondashuv va pedagogik texnologiya tamoyillariga tayanilishi belgilandi. Loyiha tuzishda qaysi o'rinda qanday bilim egallanadi, uni egallash jarayonida didaktikaning qaysi qonun-qoida va prinsiplariga amal qilinadi, o'quv jarayonida qaysi dars turi va bosqichlari, qanday usullar, axborot texnologiyalari va didaktik materiallardan foydalaniladi, degan vazifalar aks ettirildi.

O'qituvchining darsga ko'nikmalarini ikki bosqichda amalga oshiriladi [5].

1. Darsga umumiy tayyorgarlik. O'qituvchining darsga umumiy ko'nikmalarini doimiy ravishda amalga oshirib boriladigan jarayon bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, tayanch o'quv reja, o'quv fani dasturlari va ularga berilgan tushuntirish xatlarini o'rganib chiqish;
- o'quv faniga oid yangi ilmiy-metodik adabiyotlar bilan doimiy ravishda tanishib borish;
- o'z fani sohasida yangi ma'lumotlarni to'plash, muammoli masala va topshiriqlarni, test materialini jamlash;
- har bir darsda qo'llash mumkin bo'lgan ko'rgazmali materiallar va o'quv jihozlarini to'g'ri tanlay olish, ulardan o'rinli foydalanish;
- ilg'or pedagogik tajribalarni doimiy ravishda o'rganish orqali o'z bilimlarini kengaytirib borish;
- axborot texnologiyalaridan dars jarayonida foydalanish mahoratini oshirib borish, elektron darsliklar, matn muharrirlari, internetga joylashtirilgan ma'lumotlardan samarali foydalana olish kabilar talab etiladi.

2. Darsga kundalik tayyorgarlik. O'qituvchining kundalik tayyorlanishi darsni tashkil etish, ta'lim oluvchilarga beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarni qay darajada o'zlashtirishini ta'minlaydi. Darsga tayyorlanish algoritmi (qoidalar majmui) barcha omillar, holatlar hisobga olingan va kafolatlaydigan izchil tadbir bo'lishi zarur. Shuning uchun, o'qituvchi har bir darsga tayyorlanishda quyidagi tavsiyalarga rioya qilishi zarur:

Dars o'qituvchidan katta mas'uliyat talab qiladi. Shu sababli har bir darsga, xoh tajribali o'qituvchi bo'lsin, xoh yosh o'qituvchi, puxta tayyorlanish talab qilinadi. Bu jarayonda har bir ta'lim oluvchining individual xususiyatlarini chuqur o'rganish muhimdir, chunki bu, ko'zlangan ta'lim maqsadlariga erishishning kalitidir.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini innovatsion pedagogik yondashuvlardan bo'lgan akmeologik yondashuv, differensial yondashuv va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar, muammoli ta'lim texnologiyalari, modulli ta'lim texnologiyalari, hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalari va raqamli assisment va vebinar texnologiyalar asosida rivojlantirishga e'tibor qaratildi. Chunki bugungi pedagogning kasbiy ko'nikmalarini "subyekt-subyekt" munosabatlariga asoslangan bo'lishi muhimligi, bu jaranda akmeologik yondashuvni, hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalarining o'rni yuqori bo'lishi kelib chiqadi. Shu bilan birga raqamli ta'lim muhitida pedagogning kasbiy

bilim va ko'nikmalari informatsion texnologiyalardan samarali foydalana olishiga bog'liqligi, raqamli ta'limni to'g'ri tashkil qila olish ko'nikmalariga qarab ham baholanishini ham raqamli texnologiyalar, vebinarlardan samarali foydalanish, assisment tizimda baholash asosida rivojlanishiga urg'u berildi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini amalga oshirish har bir o'quv kursida bosqichma-bosqich shakllantirishga muvofiq amalga oshiriladi.

Xulosa qilganda, ta'lim oluvchi shaxsini rivojlantirishda, avvalo, uning idrokini kuchaytirish va xotirasini mustahkamlash asosida o'quv materiallarining esda saqlanishini ta'minlash zarur. Dars maqsadiga erishish uchun ta'lim oluvchilarning bilim saviyasini hisobga olish, o'quv materiallarini to'g'ri tanlash, jihozlashga jiddiy e'tibor berish, o'quv materiallarining tushunarli bo'lishi uchun zarur metod va usullarni to'g'ri tanlash hamda o'rinli qo'llay olish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullaeva, M.R. (2021). Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim sifatiga ta'siri. Toshkent: Fan va texnologiya.
2. Aliyeva, S. D. (2023). Kreativlikni rivojlantirish metodlari va ularning pedagogik ahamiyati. Namangan Davlat Universiteti Ilmiy jurnali, 4(12), 45-53.
3. Baymirzaeva, G. A. (2020). Kasbiy tayyorlovda kreativ yondashuv: nazariy va amaliy aspektlar. Pedagogika va psixologiya jurnali, 2(8), 30-37.
4. Gilford, J. P. (1967). The Nature of Human Intelligence. New York: McGraw-Hill.
5. Jones, K., & Smith, L. (2019). Creative Competence in Teacher Education: Models and Applications. Journal of Educational Innovation, 12(3), 101-118.